

# **Jarqo'rg'on tumanida “Fabullo Story Servis” MChJ tomonidan yiliga 25 ming dona qurilishda foydalaniladigan “gazobeton” ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi yo'lga qo'yilib, 30 ta ish o'rni yaratilgan.**



Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov “gazobeton” ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishdi va tadbirkor bilan muloqot qilib, korxonaning to'la quvvatda, barqaror ishlashi uchun zarur bo'lган energiya manbalarini uzluksiz ta'minlash masalalarini muhokama qildi.

Gazobeton – g'ovak betonning bir turi bo'lib, zamonaviy qurilish materiali hisoblanadi. Oddiy betondan farqli, tarkibida 1-3 millimetrli pufaklar mavjud bo'lib, ular betonning yengil va yetarli darajada mustahkam, issiq va sovuqdan yaxshi himoyalash xususiyatiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, tabiiy gazni 8 marta kam sarflashi, energiya tejamkorligi va eng asosiysi, unumdon tuproqning ishlatilmasligi va pishiq g'ishtdan bir necha marotaba afzalligi bilan ajralib turadi. 1 metr kub g'isht 1800-2000 kilogramm og'irlilikka ega bo'lsa, shu hajmdagi gazobetonning og'irligi atigi 500-700 kilogramni tashkil etadi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)